

Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 3086 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 987 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1453 ta (10,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15172 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadornlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1135	1110	396
 Sanoat	1932	1921	539
 Qurilish	1748	1747	391
 Savdo	3581	3566	756
 Tashish va saqlash	665	661	91
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1066	1059	201
 Axborot va aloqa	193	192	21
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	280	278	59
 Boshqa turlari	4838	4638	632



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 15438 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,2 % savdo, 12,5 % sanoat, 11,3 % qurilish, 7,4 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 6,9% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,3 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa, hamda 31,3 % tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3344 ta), Denov tumani (1720 ta), Jarqo'rg'on tumani (1165 ta) va Sho'rchi tumani (999 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Angor (753 ta), Muzrabot (710 ta) hamda Oltinsoy (606 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 15172 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1453 ta (10,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15172 tani tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,5 % savdo, 12,7 % sanoat, 11,5 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 30,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3290 ta), Denov (1690 ta), Jarqo'rg'on (1154 ta) Sho'rchi (988 ta) va Termiz (979 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (592 ta), Muzrabot (701 ta) hamda Angor (748 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

• 13003 ta

01.01.2018 y.

• 13719 ta

01.01.2019 y.


• 15172 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3086 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 47,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahri (589 ta), Denov (381 ta), Sho'rchi (290 ta) va Qumqo'rg'on (218 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Muzrabot (145 ta), Boysun (114 ta) hamda Oltinsoy (104 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilganda, eng ko'pi savdo (756 ta), boshqa turlari (632 ta), sanoat (539 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (396 ta) va qurilish (391 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (91 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (59 ta) hamda axborot va aloqa (21 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1877	100	2099	100	3086	100
Savdo	649	34,5	489	23,3	756	24,5
Sanoat	249	13,3	367	17,5	539	17,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	216	11,5	310	14,8	396	12,8
Qurilish	230	12,2	267	12,7	391	12,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	189	10,1	232	11,1	201	6,5
Tashish va saqlash	100	5,3	117	5,5	91	2,9
Axborot va aloqa	35	1,9	21	1,0	21	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	1,0	41	2,0	59	1,9
Boshqa turlari	191	10,2	255	12,1	632	20,5

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 11705 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5060 ta, oilaviy korxonalar – 742 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5537 ta, va boshqalar 366 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 172 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 115 taga yoki 301,8 % ga o'sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 71 tasi qo'shma korxonalar, 101 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar (77 ta yoki jami ulushi 44,8 %), Termiz (14 ta yoki 8,2 %) va Denov tumanlari (11 ta yoki 6,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun (1 ta yoki 0,6%), Oltinsoy (3 ta yoki 1,8 %), Qumqo'rg'on (5 ta yoki 2,9 %) va Sherobod (6 ta yoki 3,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak, eng ko'p qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 52 tani (30,2 %), sanoatda 46 tani (26,7 %), savdoda 37 tani (21,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida 11 tani (6,4 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 tani (1,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 tani (2,9 %), tashish va saqlashda 8 tani (4,7 %) va qurilishda 10 tani (5,8 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, savdo va boshqa faoliyat turlarida to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa

axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 123 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114 taga ko'paygan.

Bunda, Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 90 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Tojikiston Respublikasi – 7 ta, Eron Islom Respublikasi – 4 ta, Qozog'iston Respublikasi – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, va Koreya Respublikasi – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

. Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (46 ta), savdo (29 ta), sanoat (24 ta), qurilish (9 ta) va boshqa faoliyat turlari (6 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
	9	100	123	100
Sanoat	2	22,3	24	19,5
Savdo	3	33,3	29	23,5
Qurilish			9	7,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	33,3	46	37,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			4	3,3
Axborot va aloqa				
Tashish va saqlash			4	3,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	11,1	1	0,8
Boshqa turlari			6	4,9



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11618 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 11,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 2802 tasi (24,1 %) Termiz shahri, 1302 tasi (11,2 %) Denov, 890 tasi (7,7 %) Jarqo'rg'on hamda 821 tasi (7,1 %) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11618 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3548 tasi (30,5 %) – savdo, 1897 tasi (16,3 %) - sanoat, 1736 tasi (11,0 %) - qurilish, 1076 tasi (9,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1051 tasi (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 651 tasi (5,6 %) - tashish va saqlash, 216 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 185 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1258 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2781 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,9 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (541 ta), Denov (351 ta), Sho'rchi (281 ta) va Termiz (191 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Oltinsoy (69 ta), Boysun (103 ta) hamda Muzrabot (125 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (755 ta), sanoatda (539 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (395 ta) va qurilishda (390 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (21 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta), hamda tashish va saqlashda (91 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 748 tani tashkil etib, ulardan 742 tasi yoki 99,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 20,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,9 % yoki 237 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,3 % yoki 188 tasi sanoat, 22,5 % yoki 167 tasi savdo, 12,0 % yoki 89 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 11 tasi qurilish, 1,4 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 4,3 % yoki 32 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kam esa axborot va aloqa va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 2100 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 475 taga tugatish ko'paygan.

Ma'lumot uchun 2016 yilda 1615 ta, 2017 yilda 1625 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 2100 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 475 taga tugatish ko'paygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 2100 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 699 tasi (33,3 %) savdo, 308 tasi (14,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 307 tasi (14,6 %) sanoat, 197 tasi (9,4 %) qurilish, 150 tasi (7,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 110 tasi (5,2 %) tashish va saqlashda, 47 tasi (2,2 %) axborot va aloqada, 11 tasi (0,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 271 tasi (12,9 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi savdo, qishloq va o'rmon xo'jaligi va sanoat faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1625	100	2100	100	475
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	170	10,5	308	14,7	138
sanoat	188	11,6	307	14,6	119
qurilish	192	11,8	197	9,4	5
savdo	477	29,3	699	33,3	222
tashish va saqlash	58	3,6	110	5,3	52
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	92	5,6	150	7,1	58
axborot va aloqa	32	2	47	2,2	15
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	260	16	11	0,5	-249
boshqa turlari	156	9,6	271	12,9	115

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2035 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 715 taga ko'p kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 699 tasi (34,4%) savdo, 307 tasi (15,1 %) sanoat, 304 tasi (14,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 197 tasi (9,7 %) qurilishda, 149 tasi (7,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 110 tasi (5,4 %) tashish va saqlashda, 46 tasi (2,3 %) axborot va aloqada, 9 tasi (0,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 214 tasi (10,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Termiz shahrida -49 ta, Jarqo'rg'on -45 ta, Qumqo'rg'on -38 ta hamda Muzrabot tumanlarida -29 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Surxondaryo viloyati statistika
boshqarmasi
Statistik registrlarlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-85-90 (91)**